



TOSHKENT SHAHARIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar - sentabr*






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **13 712** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabrga nisbatan **2 926** taga kamaygan (o'sish sur'ati **82,4%**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **158** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **13 554** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar- sentabr oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi **53 564,3** mlrd.so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **111,3 %** ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **23 993,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **124,1 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **29 570,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **115,2 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 354,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **116,8 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar .	53 564,3	111,3	23 993,9	124,1	29 570,4	102,7
<i>tumanlar:</i>						
Ucntepa	4 571,4	103,1	840,0	109,4	3 731,3	101,8
Bektemir	1 901,2	109,2	337,4	73,7	1 563,8	121,9
Yunusobod	6 232,4	103,0	2 036,3	73,1	4 196,2	128,5
Mirzo-Ulug'bek	4 135,9	119,8	2 265,1	152,2	1 870,9	95,3
Mirobod	4 384,1	118,1	2 669,6	131,7	1 714,5	101,7
Shayxontohur	5 267,2	109,2	3 176,7	146,4	2 090,5	78,8
Olmazor	4 357,3	107,6	1 940,7	102,0	2 416,6	112,6
Sergeli	2 931,6	112,2	1 580,8	137,4	1 350,8	92,3
Yakkasaroy	4 986,3	118,2	2 182,8	157,4	2 803,5	99,0
Yashnobod	4 468,8	116,1	1 994,0	132,1	2 474,8	105,8
Yangihayot	792,6	142,0	414,9	172,8	377,7	118,8
Chilonzor	9 535,3	110,5	4 555,6	132,3	4 979,7	96,0

2023- yilning yanvar – sentabr oylarida 2022- yilning yanvar- sentabr oyiga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (**142,0 %**), Mirzo Ulug'bek (**119,8 %**), Yakkasaroy (**118,2 %**) va Mirobod (**118,1 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar - sentabr, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan **114,9 %** ni yoki **41 730,4** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar – sentabr oylari)



2023- yilning yanvar – sentabr oyida o'sish sur'ati 111,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **17,8 %** bilan **9 535,3 mlrd.** so'mni tashkil etdi.


Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Yangihayot tumani **1,5 %** bilan **792,6 mlrd.** so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish kuzatildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **29 570,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar – sentabr oylariga nisbatan **102,7 %** ga ko'paydi. Toshkent shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **55,2%** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar – sentabr oylariga nisbatan **124,1 %** ga o'sdi va **23 993,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **44,8 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (**9,3 %**), Yunusobod (**7,8 %**) va Uchtepa (**7,0 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **44,8 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (**19,0 %**), Shayxontohur (**13,2 %**), Mirobod (**11,1%**), Mirzo Ulug'bek (**9,4 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Toshkent shahar	17 924,1	107,9
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	15 449,0	100,6
Bektemir	33 122,7	101,0
Yunusobod	16 821,7	100,6
Mirzo-Ulug'bek	12 683,0	116,7
Mirobod	29 111,1	115,5
Shayxontohur	14 534,2	107,5
Olmazor	10 928,8	105,0
Sergeli	17 821,1	104,3
Yakkasaroy	38 504,6	114,2
Yashnobod	15 225,9	111,7
Yangihayot	4 772,1	132,5
Chilonzor	34 902,3	108,6

2023- yilning yanvar-sentabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 17 924,1 ming. so'mni (2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 107,9 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (**38 504,6** ming. so'm), Chilonzor (**34 902,3** ming. so'm) va Bektemir(**33 122,7** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Toshkent shahri bo'yicha 2023 - yilning yanvar - Sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 354 445,5** mln.so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar – sentabr oylariga nisbatan **2,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 199 563,2** mln.so'mni (**133,6%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **154 882,3** mln. so'mni tashkil etdi (**114,0 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mln. so'm)



Tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi ulushi, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mln. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar. tumanlar:	1 354 445,5	116,8	1199563,2	133,6	154882,3	114,0
Uchtepa	123 827,6	116,8	123827,6	2,9 m.	-	-
Bektemir	410 181,8	2,1m.	255365,1	153,6	154816,7	114,0
Yunusobod	128 543,3	85,7	128543,4	67,9	-	-
Mirzo-Ulug'bek	210 707,4	180,6	210707,3	137,3	-	-
Mirobod	64 416,7	109,1	64416,7	270,7	-	-
Shayxontohur	146 553,0	136,0	146553,0	100,4	-	-
Olmazor	35 035,5	71,6	34970,0	88,5	65,6	65,5 m.
Sergeli	53 024,5	110,9	53024,5	179,1	-	-
Yakkasaroy	46 464,1	58,3	46464,1	137,5	-	-
Yashnobod	88 594,2	60,9	88594,2	108,0	-	-
Yangihayot	3 330,5	38,8	3330,5	-	-	-
Chilonzor	43 766,7	44,4	41766,7	175,5		

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;










– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar - sentabr oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 199 563,2** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**537 234,6** mln.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mln. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	537234,6
	Non va non mahsulotlari	93856,2
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	128606,5
	Tovuq go'shti	129870,6
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	69218,2
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	33523,3
	Tuxum	39352,4
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	3383,0
	Ziravorlar	86861,9
	Tuzlamalar	29497,9
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	17822,7
	Nooziq-ovqat tovarlari	30335,9

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mln.so‘m

2023- yilning yanvar – sentabr oylarida Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tumanida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 154 882,5 mln. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 129 498,4 mln.so‘m, qo‘y va echkilar – 22 071,2 mln. so‘mni, otlar – 3 247,1mln. so‘mni, parrandalar – 65,7mln. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mln. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	104347,4
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	10109,9
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	15041,1
	Qo‘ylar	21301,3
	Otlar	3247,1
	Echkilar	770,0
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	35,0
	Tovuqlar	30,7
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 4 635 tani tashkil etib, 2022- yil 1 – oktabr holatiga nisbatan 1 853 taga kamaygan va o'sish sur'ati 71,4 % ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 48 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 587 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar – sentabr oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi 5 259,1 mlrd.ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining 59,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	5 259,1	110,8	2 108,5	117,8	3 150,6	106,5
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	146,5	114,9	-	-	146,5	119,5
Bektemir	79,3	104,5	50,0	114,0	29,3	91,5
Yunusobod	683,3	107,1	263,8	135,2	419,5	94,7
Mirzo-Ulug'bek	523,2	106,8	34,9	103,3	488,3	107,0
Mirobod	386,7	105,5	66,0	124,9	320,6	102,2
Shayxontohur	1 497,7	114,3	1 136,8	113,1	360,9	118,4
Olmazor	247,1	111,0	18,4	67,6	228,7	117,0
Sergeli	400,6	128,4	311,9	133,5	88,7	113,2
Yakkasaroy	443,9	108,5	52,2	180,5	391,7	103,1
Yashnobod	366,4	111,1	128,1	112,9	238,3	110,2
Yangihayot	80,1	106,6	-	-	80,1	106,9
Chilonzor	404,3	103,1	46,4	90,8	357,9	105,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- oktabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) 19 584,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan 116,1 % ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 8 614,7mlrd. so'm (o'sish sur'ati- 118,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 10 969,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 119,6 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	19 584,5	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	678,9	3,5
Bektemir	923,9	4,7
Yunusobod	1 721,8	8,8
Mirzo-Ulug'bek	964,3	4,9
Mirobod	1 498,6	7,7
Shayxontohur	1 999,0	10,2
Olmazor	187,0	1,0
Sergeli	5 926,3	30,3
Yakkasaroy	1 912,6	9,8
Yashnobod	1 510,0	7,7
Yangihayot	1 292,2	6,6
Chilonzor	969,7	5,0


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Sergeli (**5 926,3** mlrd. so'm), Shayxontohur (**1999,0** mlrd. so'm) va Yunusobod (**1 721,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Toshkent shahar bo'yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 112 218,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 114,4 % ga o'sdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 72 401,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ga to'g'ri keldi. Toshkent shahrida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 64,5 % ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Shayxontohur (**37,9b.**), Sergeli (**26,5b.**) va Yashnobod (**24,5b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **16 272** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabr holatiga nisbatan **775** taga kamaygan, o'sish sur'ati **95,5 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **245** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **16 027** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonala r mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar .	112 218,2	114,4	39 816,7	130,9	72 401,5	106,9
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	5 832,8	103,8	593,4	82,2	6 200,9	106,5
Bektemir	6 794,3	124,5	124,2	15,8 m.	1 256,1	114,1
Yunusobod	1 380,3	113,6	3 242,0	122,6	6 425,0	109,6
Mirzo-Ulug'bek	9 666,9	109,0	2 295,2	131,4	7 211,4	103,4
Mirobod	9 506,6	120,8	2 407,4	131,8	10 966,6	118,6
Shayxontohur	13 374,0	114,8	2 075,9	120,2	4 796,2	112,6
Olmazor	6 872,1	111,6	7 408,0	122,8	8 645,6	103,5
Sergeli	16 053,6	137,9	3 031,7	2,6 m.	2 455,2	87,3
Yakkasaroy	5 486,9	101,5	5 070,7	111,0	7 619,2	96,0
Yashnobod	12 689,9	126,5	8 798,2	150,5	6 477,8	104,0
Yangihayot	15 276,0	117,8	282,7	141,9	694,8	110,2
Chilonzor	977,5	113,9	4 487,4	113,8	9 652,7	114,0



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 71-202-88-21 (20)**